

AFORIZMLARNING GAPNI IFODA MAQSADIGA KO'RA TURLARI

Eshmuratov Umidjon Temurovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada aforizmlarning gapni ifoda maqsadiga ko'ra turlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Aforizmlarning darak, so'roq, buyruq-istak va undov gap shakllarida namoyon bo'lishi, ularning semantik-pragmatik xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot aforizmlarning nutqiy ta'sirchanlik va kommunikativ vazifalarini yoritishga qaratilgan.

Abstract. This article analyzes the types of aphorisms according to the purpose of expression from the point of view of linguistics. The manifestation of aphorisms in the forms of declarative, interrogative, imperative-desirable and exclamatory sentences, their semantic and pragmatic features are revealed. The study is aimed at highlighting the speech expressiveness and communicative functions of aphorisms.

Kalit so'zlar: aforizm, gap turlari, ifoda maqsadi, darak gap, buyruq gap, pragmatika.

Keywords: aphorism, types of sentences, purpose of expression, declarative sentence, imperative sentence, pragmatics.

Tilshunoslikda gaplar ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq-istak va undov gaplarga bo'linadi. Aforizmlar ham mazkur tasnif doirasida tahlil qilinib, tayyor nutq birliklari sifatida alohida pragmatik yuklamaga ega bo'ladi. Ular ko'pincha umumlashtiruvchi hukmni bildiradi va muallif pozitsiyasini aniq ifodalaydi.





Ma'lumki, barcha tillarda paremlar o'z strukturasi ga ko'ra gap shaklida uchraydi. Aforizm – ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham mustaqil gap shaklida bo'lishi hamda ular qo'shma gaplar tarkibiga kirishi mumkin.

Qiyoslashning ikki tilli binarliligi ikki alohida qardosh va qardosh bo'lmagan tillar uchun qo'llaniladi¹. Bizni mazkur ishimiz ham ikki qardosh bo'lmagan tillarga xos aforizimlarni o'zaro qiyoslash orqali, ushbu tamoyilga amal qilinmoqda.

Aytish kerakki, ingliz aforizmlarining sintaktik tahliliga bag'ishlangan ilmiy ishlar unchalik ko'p emas. I.G.Trofimova va I.G.Nikitinaning ilmiy tadqiqot ishi ergashgan qo'shma gap ko'rinishidagi ingliz va chuvash paremiologik birliklarining sintaktik qurilishini o'rganishga bag'ishlangan. Chog'ishtirilayotgan tillar maqollarida eng ko'p uchraydigan tiplar tahlil qilingan, umumiy va o'ziga xos belgilar aniqlangan².

O'zbek aforizimlarining sintaktik tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarning ham salmog'i ancha kam. Bu sohada X.Abdurahmanov, P.Bakirov³ kabi olimlar jiddiy ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O'zbek tilshunoslari ham gap tushunchasiga o'zlarining tavsiflarini berganlar. "O'zbek tili grammatikasi"da quyidagi ta'rif mavjud: "Gap ma'lum fikrni ifodalab, nutqning bir qismini tashkil etadi. Til, nutq orqali kishilar o'z fikrlari, maqsadlari, his-hayajonlarini ifodalaydilar. Fikr turlicha ifodalanadi: fikr sodda yoki qo'shma gaplar orqali, darak, so'roq, buyruq, undov gaplar orqali, ikki sostavli yoxud bir sostavli gaplar orqali, to'liq yoki to'liqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin"⁴.

¹ Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. пособие для пед. ин-тов. – М.: Высш. шк., 1983. – С.76

²Трофимова И.Г., Никитина И.Г. Сравнительно-сопоставительный анализ паремий со структурой сложноподчиненного предложения (на материале английского и чувашского языков)//Вестник Чувашского университета. – 2017, № 2. – С. 311-316.

³Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разнотипных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с.

⁴ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис [Масъул муҳаррирлар: Г'А.Абдурахмонов ва бошқ.]. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 95.

G'.Abdurahmonov va boshqalarning fikrlariga ko'ra: "Gap so'zlovchi uchun fikr ifodalash, bayon qilish, tinglovchi uchun esa fikr anglash vositasidir. Tilda fikr ifodalash, bayon qilish va anglashda gapdan foydalaniladi"⁵.

Ingliz va o'zbek tillarida gaplar ifoda maqsadiga ko'ra quyidagi *Declarative/darak Interrogative/so'roq, Imperative/buyruq va Exclamatory/undov* turlarga bo'linadi ⁶.

Ingliz tilida: *The object of war is not to die for your country but to make the other bastard die for his.* – [George S. Patton](#).

O'zbek tilida: *Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shu kishining Vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu Vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z Vatanidan - uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-farog'atda yashamas, maishati talx bo'lib, har vaqt dilining bir go'shasida o'z Vatanining muhabbati turar*⁷. – **Abdulla Avloniy**.

O'zbek tilida: *O'z kindik qoni to'kilgan, ota-bobolari xoki yotgan ona yurtini dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb biladigan odamning maqsad-muddaolari aniq, g'urur va iftixori yuksak bo'ladi.* – **Islom Karimov**.

Shu bilan birga, **Declarative/ darak** gap shaklidagi aforizimlarga quyidagi ingliz va o'zbek **Abraham Lincoln, [Thomas Paine](#), [George S. Patton](#), [Andrew Jackson](#), [James Monroe](#), [William Cowper](#)**, Yusuf Xos Hojib, Nozim Hikmat, M. Fuzuliy, Hazrat Pahlavon Mahmud, Haydar Xorazmiy, Jomiy, Najmiddin, Kubro, Kamol Xo'jandiy, Fitrat, Xurramiy, Bayoniy, Otoiy, Sidqiy Hondoylikni, Avloniy, Hayoliddin al-Hasaniy, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Sayqaliy, Xurramiy, Xoja Samandar Termiziy, Bayoniy, Otoiy, Sidqiy

⁵ Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 20.

⁶ Гаппоров М., Қосимова Р. Инглиз тили грамматикаси. Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма / М. Гаппоров, Р. Қосимова. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2010 – Б. 255.

⁷ <http://qashqadaryozg.uz/read/vatan-nima-vatanparvar-kim>

Xondoyliqiy, Fitrat, Anbar Otin kabi qomusiy olim, adiblarning hiqmatli soʻzlarini ham keltirib oʻtish mumkin:

Ingliz tilida: *The object of war is not to die for your country but to make the other bastard die for his.*

Yusuf Xos Hojib, Nozim Hikmat, M. Fuzuliy, Hazrat Pahlavon Mahmud, Haydar Xorazmiy, Jomiy, Najmiddin, Kubro, Kamol Xoʻjandiy, Fitrat, Xurramiy, Bayoniy, Otoiy, Sidqiy Xondoylikni, Avloniy, Hayoliddin al-Hasaniy, Uvaysiy, Dilshodi Barno, Sayqaliy, Xurramiy, Xoja Samandar Termiziy, Bayoniy, Otoiy, Sidqiy Xondoyliqiy, Fitrat, Anbar Otin kabi yurtimizning qomusiy olim, adiblarnining hiqmatli soʻzlarida ham vatan tushunchasini naqadar oliy ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Oʻzbek tilida: *Vatan degani – faqat otalarning xoki qolgan joy emas. Mening uchun Vatan – odamni odam qilgan joydir.*

Oʻzbek tilida: *Mening bitta hayotim bor, bordi-yu, mingta hayotga ega boʻlgan taqdirimda, hammasini ham Vatan uchun sarflagan boʻlur edim.*

Oʻzbek tilida: *Oʻz yurtida xalq ichida huzmatda boʻl, Hushyor boʻl, oʻsal boʻlma, sezgir boʻl.*

Oʻzbek tilida: *Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranju gʻurbat havas aylama.*

Oʻzbek tilida: *Vatanni tark etuvchi har qanday kishi razillik qiluvchidir; Be vatan boʻlsang tikonni oʻzisan.*

Oʻzbek tilida: *Vatanning taqdiri undagi yoshlar tarbiyasiga bogʻlikligi kishilarni boshqarish sanʼati toʻgʻrisida fikr yuritadiganlarning xammasiga maʼlum.*





O'zbek tilida: *Kishiga kuch tabiat tomonidan beriladi, vatan ravnaqi uchun xarakat — kalbdan va ilmdan, boylik esa ko'p holda oddiy tasodif tufayli qo'lga kiritiladi.*

Ifoda maqsadiga ko'ra so'roq mazmunidagi aforizmlar ingliz tilida ham o'zbek tilida ham salmog' jihatdan darak gap shaklidagi aforizmlardan kam.

O'zbek tilida: *Yerimiz, suvimiz, farzandimiz deb, Xotin, bola-chaqa, dilbandimiz deb, Birma-bir jonimiz etamiz fido, Vatanni dushmanga bermaymiz aslo. — Abulqosim Firdavsiy.*

Inglizcha: *In a storm, I think, 'What if the gospel be not true? Then thou art, of all men, most foolish. For what has thou given up thy goods, thy ease, thy friends, thy reputation, thy country, thy life?' — John Wesley.*

Ingliz va o'zbek tilida ham ifoda maqsadiga ko'ra buyruq gap shaklidagi aforizmlar anchagina. “Buyruq gaplar umumiy buyruq arxisemasi bilan bir butunlikni hosil qilsa ham, lekin buyruq arxisemasi bir qator semalar orqali namoyon bo'ladi”. O'rganilayotgan aforizmlar **maslahat, iltimos, taklif, undash, tashvish, hayajon, yalinish, orzu, hayratlanish, g'amxo'rlik, tashviq, gumon, g'azab, do'q** kabi mazmunni ifodalaydi.

Ingliz tilida: *Our country may be likened to a new house. We lack many things, but we possess the most precious of all - liberty! — James Monroe.*

O'zbek tilida: *Yerimiz, suvimiz, farzandimiz deb, Xotin, bola-chaqa, dilbandimiz deb, Birma-bir jonimiz etamiz fido, Vatanni dushmanga bermaymiz aslo*⁸! — **Xusrav Dehlaviy.**

O'zbek tilida: *Sharaf-la, viqor-la yashagin har choq!; O'lguncha Vatanga sodiq bo'l.*

⁸ Фозилов М. Хикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. — Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1967. — Б.70.

O'zbek tilida: *Bori elga yaxshilig' kilg'ilki, mundin yaxshi yo'q — Kim, degaylar daxr aro koldi falondin yaxshilig'!*

O'zbek tilida: *Utar kunlar, utar zamon, Ey Vatanim, bo'lma xijron! Men kstsam-da, san bo'l omon! Omon — Vatan, Vatan — omon.*

O'zbek tilida: *Vatanni tark etmoq xazil ish emas, Bu ish uchun har kim tob beravermas! Judolik daraxtdir bargi yo'q, yolg'iz, Bargi bo'lsa hamki, ammo mevasiz. Bugun ayriliqdan yuragim giryon, Aziz yerni qo'ldan chiqarib hayron. Na ko'zda uyqu bor, na dilda rohat, Azob o'ti barin aylamish g'orat!*

O'zbek tilida: *Har kishi el uchun tortsa agar ranj, Oqibat muyassar bo'lar unga ganj!*

O'zbek tilida: *Undab ulug' chaqirsa, Tezlik bilan chopib kel, Ochlikda birga bo'lgil, Ne holda bo'lsa yurt, el.*

Aforizmlar gapni ifoda maqsadiga ko'ra darak, so'roq, buyruq–istak va undov gap shakllarida namoyon bo'ladi. Ushbu tasnif aforizmlarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Aforizmlarning mazkur jihatdan o'rganilishi tilning ta'sirchanlik va ifoda imkoniyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. пособие для пед. ин-тов. — М.: Высш. шк., 1983. — С.76
2. Трофимова И.Г., Никитина И.Г. Сравнительно-сопоставительный анализ паремий со структурой сложноподчиненного предложения (на материале английского и чувашского языков)//Вестник Чувашского университета. — 2017, № 2. — С. 311-316.





3. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с.

4. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис [Масъул муҳаррирлар: Г.А.Абдурахмонов ва бошқ.]. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 95.

5. Абдурахмонов Г., Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 20.

6. Гаппоров М., Қосимова Р. Инглиз тили грамматикаси. Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма / М. Гаппоров, Р. Қосимова. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2010 – Б. 255.